

## **So'ngi Rim imperiyasi**

*Xolxo 'jayev Zuxriddin Faxriddin o'g'li.*

*Ochilov Javohir Safar o'g'li.*

### **Denov tadbirkorlik va pedagogika institut talabalari**

**Annotasiya:** Ushbu kurs ishida So'ngi Rim imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, Avgustinning yuritgan siyosati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Romul Avgust, Yuliy Nepos, rim imperiyasi, respublika

#### **Kirish**

*Romul Avgust 475-yil 31-avgust kuni Rim imperiyasining taxtiga o'tirganidan so'ng, u 476-yil sentabrda hokimiyatdan yiqitilguniga qadar imperiyaga 10 oydan sal ko'proq vaqt davomida hukmronlik qilgan edi. Uning hokimiyatdan qulashi tabiiy ravishda qadimgi Rimning ham qulaganini anglatadi va g'arbiy Yevropada O'rta asrlarning boshlanishidan xabar beradi. Taxminan 14 yoshida imperator bo'lgan Romul Avgustning bolaligi haqida ko'p narsa ma'lum emas. Ammo uning otasi hukumatda baland lavozimni egallagani sababli Romul o'sha paytda aristokrat bolalarga xos bo'lgan boshlang'ich ta'lim olgan deb taxmin qilish mumkin. 474-yil iyun oyida Yuliy Nepos g'arbiy Rim imperiyasining imperatoriga aylandi. Ko'p o'tmay, u Romulning otasi – Orestni g'arbiy Rim qo'shinining “askarlar ustasi” etib tayinladi.*

*Orest o'g'lining hokimiyatdagi nomzodini ilgari surish uchun u yangi tayinlangan qo'mondonligidan foydalandi. 475-yilning 28-avgustida Orest 402-yildan keyin Rim imperiyasining poytaxti deb hisoblangan Ravennada boshqaruvini muvaffaqiyatli qo'lga kiritdi. Orest qo'shinlari tomonidan mag'lub etilgan Yuliy Nepos Dalmatiyaga ko'chib ketdi.*

*Imperiyaning boshqaruvini o'z qo'lida olib qolishdan ko'ra, Orest uni 14 yoshli o'g'liga topshirishga qaror qildi. Shunday qilib, Romul g'arbiy Rim imperiyasining imperatori etib tayinlandi. Romul Avgustning (Romulus Augustus) ismi omma oldida kulgiga qoldi, xalq imperatorni masxaralab, “Momyllus”, ya'ni “kichik*

sharmandalik” degan laqab chiqardi.

### **Muhokama va natijalar**

Romul davriga kelib, imperiya parchalanish arafasida edi. Uning iqtidorga kelishidan oldin asr davomida imperiya o'zining asosiy qudrati va yerining katta qismini yo'qotgan edi. Bu paytda sharqiy imperiya (Vizantiya imperiyasi) tobora boyib, uning hukmdorlari g'arbni ham bosib olishga tahdidlarni boshlab yuborgan edi.

Romul siyosatda faol ishtirok etmadi, chunki u davlatni o'zi boshqarishi uchun juda yosh sanalar edi. Uning o'rniga otasi Avgust nomidan imperiyani boshqardi. Uning ismi Rim, Ravenna va Milan kabi shaharlarda zarb qilingan ba'zi tangalarda bosilgan bo'lsa ham, Romul sharafiga bironta ham yodgorlik qurilmadi. Yuliy Nepos singari, Orest ham imperiyaning buyukligini tiklashni orzu qilar, lekin aslida, buning uchun uning imkoniyatlari kamroq edi. Ammo sharqiy imperator Zeno Romul Avgustni tan olishdan bosh tortdi, Dalmatiyaga qochib ketgan Neposni qonuniy hukmdor deb hisoblashda davom etdi.

Ota-o'g'il hukumatga kelganidan 10 oy o'tib, ularga qarshi isyon ko'tarildi. Yollanma askarlar urushdan oldin Orestga shart qo'ydi – Italiyadan ular uchun yer ajratilishi zarur edi. Ammo bu shart rad etildi. Buning ortidan davlat to'ntaruvi kelib chiqdi. Unga Orest davrida harbiy rahbar bo'lib ishlagan Odoakr boshchilik qildi. Orest bu vaqtda hujumni qaytarishga umid qilib, himoyalangan Tisinumga qochib ketdi, ammo shahar egallab olinib, talon-taroj qilindi. 476-yil 28-avgustda, aynan u hukumat tepasiga kelganiga roppa-rosa bir yil bo'lganida, Orest qo'lga olindi va qatl etildi.

Romul Avgustning otasi o'ldirilishidan besh kun oldin Odoakr o'zini Italiyaning yangi qiroli sifatida tanishtirgan edi. Bir oy o'tgach, Odoakr taxtdan tushirildi, uni otasidek qismat kutmadi. Yangi qiroli uni yoshligini hisobga olib, qatl qilmadi. Shunday qilib, taxminan 500 yil davomida rivojlanib kelgan Rim imperiyasi quladi va g'arbiy imperiya tarqatib yuborildi.

Romulning ketishidan so'ng, qirollik muhri va idorasidagi boshqa buyumlar sharqiy imperiyaga ko'chirib o'tkazildi. Bu g'arbda imperatorlarning hukmronligi tugagani va g'arbiy imperiyaning parchalanishini anglatdi

Qanchalar g'alati eshitilmasin, Rimning so'nggi hukmdori tinch qo'yildi. Unga hech kim tahdid qilmadi. Odoakr yosh bolaning hokimiyatga keltiradigan xavfini minimal baholab, u oilasi bilan birga ketishiga ruxsat berdi.

Ba'zi manbalarga ko'ra, Odoakr Avgustga katta miqdorda pensiya tayyorlagan, Romul Avgust uni Odoakrning o'limidan so'ng ham olib turgan edi.

Romul Avgustning qanday o'lim topgani haqida biror tayinli ma'lumot yo'q, ammo taqdir Rimning so'nggi imperatoriga boshqa hukmdorlardan ko'ra ancha rahmdilroq bo'lgani aniq.

Bu holat uzoq davom etmadi – Nepot Italiyada hokimiyatni tiklashga harakat qildi, uning harakatlari Odoakrga unchalik yoqmadi. 480-yilda Yuliy Nepot o'z qo'riqchilari tomonidan o'ldirildi.

Shundan so'ng, Odoakr Konstantinopolga imperatorlik nishonlarini (hokimiyat belgilarini) yubordi, bu eng ramziy lahza deb hisoblanadi – hatto g'arbiy imperiyaning ramzlari endi bu yerning yangi egalariga kerak emas edi. Ehtimol, shu ondan boshlab, dunyo tarixida munosib o'rin tutgan, Yevropa sivilizatsiyasining rivojlanish yo'nalishini belgilab bergan buyuk imperiya rasman yo'q bo'lgan edi.

### **Xulosa**

Rim jamiyatida ingliz tilidagi zamonaviy „sinf“ tushunchalari aniq ifoda etmasligi mumkin bo'lgan bir-biriga zid bo'lgan ijtimoiy ierarxiyalar mavjud edi. Avgustning yakka hokimiyat tepasiga kelgan 20 yillik fuqarolik urushi Rimdagi an'anaviy jamiyatni sarosimaga solib, inqilob holatida qoldirdi, ammo boylik va ijtimoiy kuchni tezda qayta taqsimlashga ta'sir qilmadi. Quyi sinflar nuqtai nazaridan, faqat ijtimoiy piramidaga cho'qqilar qo'shildi. Shaxsiy munosabatlar — homiylik, do'stlik (amisiya), oila, nikoh respublikada bo'lgani kabi siyosat va hukumat faoliyatiga ta'sir ko'rsatishda davom etdi. Ammo Neron davrida, erkin tug'ilgan fuqarodan ko'ra boyroq bo'lgan yoki senatoridan ko'ra ko'proq hokimiyatni egallagan otliqni topish odatiy hol bo'lmagan.

### **Foydanilgan adabiyotlar**

1. [Lintott, Andrew](#) (1999) *The Constitution of the Roman Republic*. Oxford University Press. p. 114
2. ↑ [Eder, W.](#) (1993) "The Augustan Principate as Binding Link, " in *Between Republic and Empire*. University of California Press. p. 98. ISBN 0520084470.
3. ↑ [Kelly](#), pp. 4ff.
4. ↑ [Brennan, T. Corey](#) (2000) *The Praetorship in the Roman Republic*. Oxford University Press. p. 605.
5. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). SOVET HUKUMATINING DINGA NISBATAN MUNOSABATI VA UNING IJTIMOYIY OQIBATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 392-397.
6. Chorshanbiyev, B. R., & Ollomurodov, N. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI XO 'JALIGI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1 SPECIAL), 417-419.
7. Boytora, C., & Nurali, O. (2023). Amir Temur and the Times of the Temuris Mints and Monetary Policy. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 16, 1-4.
8. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). O 'ZBEKISTONNING JANUBIY SHAHARLARIDA UY-JOY QURILISHIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 25-28.